2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK: 81'25+81'373

Nuriddinova Dildora,
magistrant, ingliz tili o‘qituvchisi

MUQOBILSIZ LEKSIKA TUSHUNCHASINING TILSHUNOSLIKDAGI NAZARIY TALQINLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada muqobilsiz leksika tushunchasining zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikdagi nazariy talqinlari tahlil qilinadi. Rus tarjimashunoslik maktabi vakillari V.V. Vinogradov, V.N. Komissarov, L.S. Barxudarov hamda G‘arb tilshunoslari E. Nayda, P. Nyumark, J. Ketford, M. Beyker va A. Vejbitskayaning mazkur hodisaga oid qarashlari qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqotda muqobilsiz leksikaning lingvistik, milliy-madaniy va funksional xususiyatlari aniqlanib, uning “realiya”, “lakuna” va “madaniy xos birlik” tushunchalari bilan munosabati yoritiladi. Tahlil natijasida muqobilsizlikni tavsiflash uchun uchta asosiy mezon — nishon tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri leksik ekvivalentning mavjud emasligi, birlikning milliy-madaniy yoki ijtimoiy xususiyatni ifodalashi hamda uning ma’nosini tavsifiy, izohli yoki funksional vositalar orqali yetkazish imkoniyati — ajratildi. Shuningdek, ikki tilli o‘quv lug‘atlarida muqobilsiz birliklarni berishning bosqichma-bosqich modeli taklif etiladi. Tadqiqot natijalari muqobilsiz leksikani nazariy jihatdan chegaralash va uning ikki tilli pedagogik leksikografiyadagi o‘rnini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: muqobilsiz leksika, ekvivalentsizlik, tarjima nazariyasi, lingvomadaniyat, madaniy realiya, lakuna, ikki tilli leksikografiya, funksional ekvivalentlik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ТРАКТОВКИ ПОНЯТИЯ БЕЗЭКВИВАЛЕНТНОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. В статье анализируются теоретические трактовки понятия безэквивалентной лексики в современном языкознании и переводоведении. Сопоставляются взгляды представителей русской переводческой школы В.В. Виноградова, В.Н. Комиссарова, Л.С. Бархударова и западных лингвистов Ю. Найды, П. Ньюмарка, Дж. Кэтфорда, М. Бейкер и А. Вежбицкой. Определяются лингвистические, национально-культурные и функциональные особенности безэквивалентной лексики, а также рассматривается её соотношение с понятиями «реалия», «лакуна» и «культурно-специфическая единица». В результате анализа выделены три основных критерия безэквивалентности: отсутствие прямого лексического эквивалента в языке перевода, выражение национально-культурной или социальной специфики и

возможность передачи значения описательными, пояснительными или функциональными средствами. Предлагается поэтапная модель представления безэквивалентных единиц в двуязычных учебных словарях. Результаты исследования могут служить теоретической основой для разграничения понятия безэквивалентной лексики и определения её места в двуязычной педагогической лексикографии.

Ключевые слова: безэквивалентная лексика, эквивалентность, теория перевода, лингвокультура, культурная реалия, лакуна, двуязычная лексикография, функциональная эквивалентность.

THEORETICAL INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT OF NON-EQUIVALENT LEXICON IN LINGUISTICS

Abstract. This article examines theoretical interpretations of the concept of non-equivalent vocabulary in contemporary linguistics and translation studies. The views of representatives of the Russian school of translation studies, including V.V. Vinogradov, V.N. Komissarov, and L.S. Barkhudarov, are compared with those of Western scholars such as E. Nida, P. Newmark, J. Catford, M. Baker, and A. Wierzbicka. The study identifies the linguistic, national-cultural, and functional characteristics of non-equivalent vocabulary and examines its relationship with the concepts of realia, lacuna, and culture-specific item. Three major criteria of non-equivalence are identified: the absence of a direct lexical equivalent in the target language, the expression of national-cultural or social specificity, and the possibility of conveying meaning through descriptive, explanatory, or functional means. A step-by-step model for presenting non-equivalent units in bilingual pedagogical dictionaries is also proposed. The findings may provide a theoretical basis for defining the boundaries of non-equivalent vocabulary and determining its role in bilingual pedagogical lexicography.

Keywords: non-equivalent vocabulary, equivalence, translation theory, linguoculture, cultural realia, lacuna, bilingual lexicography, functional equivalence.

Kirish. Globallashuv, xalqaro aloqalarning kengayishi va xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning ortishi sharoitida ikki tilli lug‘atlarning ilmiy va amaliy ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tarjima jarayonida bir tilda mavjud bo‘lgan ayrim leksik birliklarning ikkinchi tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti mavjud emasligi muayyan muammolarni yuzaga keltiradi. Bunday birliklar tilshunoslik va tarjimashunoslikda odatda “muqobilsiz leksika” yoki “ekvivalentsiz leksika” tushunchalari orqali ifodalanadi.

Muqobilsiz leksika muammosi faqat bir til birligiga boshqa tilda mos so‘z topish masalasi bilan cheklanmaydi. Chunki ayrim leksik birliklar muayyan xalqning tarixiy tajribasi, urf-odati, ijtimoiy munosabatlari, turmush tarzi va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli ularni boshqa

tilga tarjima qilishda oddiy lug‘aviy ekvivalentdan foydalanish mazmunning barcha qirralarini yetkazish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatlarda tavsifiy tarjima, izoh, funksional muqobil, transliteratsiya yoki madaniy sharh kabi vositalarga murojaat qilinadi.

Muqobilsiz leksika tushunchasining nazariy talqini turli ilmiy maktablarda bir xil emas. Rus tarjimashunoslik an’anasida uning milliy-madaniy xususiyatlari va tarjima jarayonidagi o‘rni ko‘proq yoritilgan bo‘lsa, G‘arb tarjimashunosligida ekvivalentlik, kommunikativ ta’sir va funksional moslik masalalariga katta e’tibor berilgan. Shu sababli mazkur yondashuvlarni qiyosiy o‘rganish muqobilsiz leksikaning umumiy va farqli belgilarini aniqlash imkonini beradi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, muqobilsiz leksika tarjimashunoslikda keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning ikki tilli o‘quv lug‘atlarini yaratish bilan bog‘liq nazariy va metodik jihatlari yanada tizimli tadqiq etishni talab qiladi. O‘quv lug‘atida bunday birlikni qanday berish, unga qancha hajmda izoh berish, funksional ekvivalentni qachon qo‘llash va madaniy ma’lumotni qanday shaklda taqdim etish masalalari alohida metodik yondashuvni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi muqobilsiz leksika tushunchasining asosiy nazariy talqinlarini qiyosiy tahlil qilish, turli ilmiy yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda ikki tilli pedagogik leksikografiya uchun muqobilsiz leksikaning ishchi ta’rifini shakllantirishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy, qiyosiy, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Muqobilsiz leksika va tarjima ekvivalentligi masalalariga bag‘ishlangan rus va G‘arb ilmiy maktablariga mansub tadqiqotlar tanlab olinib, ulardagi asosiy nazariy qarashlar o‘zaro qiyoslandi. Xususan, V.V. Vinogradov, V.N. Komissarov, L.S. Barxudarov, E. Nayda, P. Nyumark, J. Ketford, M. Beyker, A. Vejbitskaya va L. Zgusta qarashlari tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi [1–9].

Tahlil jarayonida, avvalo, muqobilsiz leksika tushunchasiga berilgan ta’riflar aniqlanib, ulardagi umumiy semantik belgilar ajratildi. Keyingi bosqichda “realiya”, “lakuna”, “culture-specific item” va “non-equivalence” kabi yaqin tushunchalar bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Yakuniy bosqichda aniqlangan mezonlarning ikki tilli o‘quv lug‘atlarini tuzish amaliyotidagi qo‘llanish imkoniyatlari baholandi.

Metodologik jihatdan muqobilsiz leksikani faqat leksik ekvivalentning mavjud yoki mavjud emasligi asosida aniqlash bilan cheklanmaslik, uning milliy-madaniy mazmuni, kontekstual qo‘llanishi va kommunikativ funksiyasini ham hisobga olish zarur deb qaraldi. Bunday yondashuv muqobilsiz birliklarning tarjima va leksikografik tavsifini yanada aniqroq amalga oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Muqobilsiz leksika masalasi tilshunoslik, tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va leksikografiya kesishmasida shakllangan murakkab nazariy muammolardan biridir. Mazkur tushunchaga turli ilmiy maktablar tomonidan turlicha yondashilgan bo‘lib, uning mazmuni ko‘pincha ekvivalentlik, tarjima, milliy-madaniy xususiyat va madaniyatlararo

kommunikatsiya masalalari bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Shu sababli mavjud ilmiy adabiyotlarni rus tarjimashunoslik maktabi va G‘arb tarjimashunosligi doirasidagi yondashuvlar asosida qiyosiy o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Rus tarjimashunoslik an’anasida muqobilsiz leksikaning milliy-madaniy xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. V.V. Vinogradov tarjima jarayonida milliy o‘ziga xoslikni ifodalovchi leksik birliklarning alohida mavqega ega ekanligini ko‘rsatadi [1]. Uning qarashlari muqobilsiz birliklarni xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi va madaniy qadriyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi.

V.N. Komissarovning tarjima nazariyasiga oid tadqiqotlarida ekvivalentlik masalasi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi [2]. Olim tarjimada manba va nishon til birliklari o‘rtasidagi munosabatni mutlaq shakliy moslik bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv muqobilsiz birliklarning ma’nosini tavsifiy tarjima, izohlash yoki funksional almashtirish orqali yetkazish imkoniyatini asoslashga xizmat qiladi.

L.S. Barxudarov tarjima jarayonida til birliklarining kontekstual xususiyatlariga e’tibor qaratadi [3]. Uning qarashlaridan kelib chiqib, muayyan birlikning tarjimadagi ekvivalenti doimo bitta shakl bilan chegaralanmasligi mumkin. Birlikning matndagi vazifasi va kommunikativ mazmuniga qarab turli tarjima vositalaridan foydalanish ehtimoli mavjud.

G‘arb tarjimashunosligida muqobilsizlik masalasi, avvalo, ekvivalentlik va kommunikativ ta’sir nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. E. Naydaning dinamik ekvivalentlik konsepsiyasida tarjimaning asosiy vazifasi manba matnning mazmuni va kommunikativ ta’sirini nishon til o‘quvchisiga tabiiy tarzda yetkazish bilan bog‘lanadi [4]. Ushbu yondashuv muqobilsiz birliklar tarjimasida shakliy moslikdan ko‘ra funksional moslikka e’tibor qaratish imkonini beradi.

P. Nyumark tarjimada madaniy xususiyatga ega birliklarning o‘rnini alohida ko‘rib, transliteratsiya, tavsifiy tarjima, madaniy sharh va boshqa usullardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [5]. J. Ketford esa ekvivalentlikni formal moslik va matniy ekvivalentlik o‘rtasidagi farq orqali tushuntiradi [6]. Bu yondashuv bir tildagi birlikning ikkinchi tilda shakliy jihatdan aynan takrorlanmasligi uning funksional jihatdan ifodalanishiga to‘sqinlik qilmasligini ko‘rsatadi.

M. Beyker tarjima jarayonida ekvivalentlik muammolarini tizimli ravishda tahlil qilib, umumlashtirish, madaniy almashtirish, parafraz va boshqa strategiyalarning qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [7]. A. Vejbitskayaning tadqiqotlarida esa til va madaniyat o‘rtasidagi semantik munosabatlar asosiy masalalardan biri sifatida qaraladi [8]. Uning yondashuvi ayrim leksik birliklarning ma’nosi muayyan madaniyatning konseptual tizimi bilan bog‘liq holda shakllanishini ko‘rsatadi.

L. Zgusta ikki tilli va ko‘p tilli lug‘atlarni yaratishning nazariy va amaliy tamoyillarini ishlab chiqishda muhim hissa qo‘shgan tadqiqotchilardan biridir [9].

Uning leksikografik qarashlari lug‘at maqolasida ekvivalent, izoh, misol va kontekst kabi elementlarning o‘zaro munosabatini belgilash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida ham tarjima, semantika va pragmatika masalalariga oid tadqiqotlar muqobilsiz leksikani o‘rganish uchun nazariy asos bo‘la oladi. Sh. Rahmatullayevning leksikografik ishlari o‘zbek tilidagi so‘zlarning ma’no tuzilishi, qo‘llanishi va izohlanishini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi [10]. Sh. Safarovning pragmalingvistik tadqiqotlarida esa til birliklarining kommunikativ vazifasi, kontekst va nutqiy ma’no masalalariga e’tibor qaratiladi [11].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda muqobilsiz leksika ko‘proq tarjima jarayoni, ekvivalentlik va milliy-madaniy xususiyatlar nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Biroq uning ikki tilli o‘quv leksikografiyasidagi o‘rni, xususan, ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida muqobilsiz birliklarni aniqlash, tasniflash va lug‘at maqolasida izohlash mezonlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu jihatdan mavjud nazariy yondashuvlarni umumlashtirish va ularni pedagogik leksikografiya ehtiyojlari bilan bog‘lash mazkur tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi.

Natijalar. Nazariy manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida muqobilsiz leksika tushunchasining uchta asosiy belgisi ajratildi. Birinchi belgi — manba tildagi birlikning nishon tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri leksik ekvivalentga ega emasligidir. Bunda mutlaq ekvivalentning yo‘qligi birlik ma’nosining umuman tarjima qilib bo‘lmasligini anglatmaydi. Ko‘pgina hollarda mazmun tavsifiy yoki funksional vositalar orqali yetarli darajada ifodalanishi mumkin [2; 4].

Ikkinchi belgi — muqobilsiz birlikning milliy-madaniy, tarixiy yoki ijtimoiy xususiyatni ifodalashidir. Bunday birliklar muayyan xalqning turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlari yoki madaniy tajribasiga oid tushunchalarni nomlashi mumkin.

Uchinchi belgi — muqobilsiz birlikni turli tarjima va izohlash vositalari orqali nishon til o‘quvchisiga tushunarli tarzda yetkazish imkoniyatidir. Tarjimon yoki lug‘at tuzuvchi birlikning kommunikativ vazifasiga qarab tavsifiy tarjima, funksional almashtirish, madaniy sharh yoki kontekstual misoldan foydalanishi mumkin [4; 5; 7].

Tahlil natijalari muqobilsiz leksikani faqat bitta mezon, ya’ni ekvivalentning mavjud emasligi asosida aniqlash yetarli emasligini ko‘rsatdi. Birlikning milliy-madaniy mazmuni va uning real nutqdagi funksiyasi ham hisobga olinishi lozim. Aynan shu uch omilning o‘zaro birligi muqobilsiz leksikaning nisbatan aniq ishchi modelini shakllantirish imkonini beradi.

Muhokama. Muqobilsiz leksika tushunchasini aniq belgilashda unga yaqin terminlarning chegaralarini farqlash alohida ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda “realia”, “lacuna”, “culture-specific item” va “non-equivalence” atamalari ayrim holatlarda o‘zaro yaqin ma’nolarda qo‘llanadi. Biroq ularning mazmuni va tadqiqot obyekti bir xil emas. “Realiya” odatda muayyan xalqning moddiy yoki ma’naviy

madaniyatiga xos predmet, hodisa yoki tushunchani ifodalasa, "muqobilsiz leksika" ko'proq til birligining nishon tilda to'g'ridan-to'g'ri leksik ekvivalentga ega emasligini bildiradi. "Lakuna" esa bir tilda mavjud bo'lgan tushuncha yoki ma'noning boshqa tilda bevosita ifodalanmagan holatiga urg'u beradi [7; 8].

Rus tarjimashunoslik maktabida muqobilsizlik masalasining lingvomadaniy jihatlariga katta e'tibor qaratiladi. V.V. Vinogradov milliy xususiyatni ifodalovchi birliklarning tarjima jarayonidagi o'ziga xosligini ta'kidlaydi [1]. V.N. Komissarov esa tarjimada ekvivalentlikning turli darajalarini hisobga olish va zaruratga qarab tavsifiy yoki funksional vositalardan foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi [2]. L.S. Barxudarov qarashlarida esa kontekstning roli alohida ahamiyatga ega [3]. Bu yondashuvlar muqobilsiz birliklarning tarjimasida yagona universal usul mavjud emasligini ko'rsatadi.

G'arb tilshunosligida muqobilsizlik va ekvivalentlik masalasi ko'proq funksional-kommunikativ nuqtayi nazardan o'rganilgan. E. Naydaning dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi tarjimada manba birlikning shakliy xususiyatidan ko'ra uning mazmuni va kommunikativ ta'sirini saqlashga urg'u beradi [4]. P. Nyumark esa madaniy birliklarni tarjima qilishda transliteratsiya, tavsifiy tarjima va madaniy sharh kabi strategiyalarni ko'rsatadi [5]. M. Beyker tomonidan taklif etilgan tarjima strategiyalari ham muqobilsiz birliklarni turli usullar yordamida ifodalash mumkinligini ko'rsatadi [7].

Ikki tilli o'quv lug'atlari nuqtayi nazaridan muqobilsiz birlikni tavsiflash alohida metodik yondashuvni talab qiladi. O'quv lug'atining asosiy vazifasi faqat so'zning ma'nosini ko'rsatish emas, balki o'rganuvchiga uning to'g'ri qo'llanishini tushuntirishdan ham iborat. Shu sababli muqobilsiz birlik uchun lug'at maqolasida lemma, talaffuz, grammatik ma'lumot, qisqa semantik izoh, tavsifiy tarjima, funksional ekvivalent, kontekstual misol va zarur hollarda madaniy sharh kabi elementlarning kombinatsiyasidan foydalanish mumkin [9].

Masalan, ingliz tilidagi "privacy" birligi o'zbek tilida kontekstga qarab "shaxsiy hayot daxlsizligi", "shaxsiy hudud" yoki "maxfiylik" kabi vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Bu holat ayrim birliklarda to'g'ridan-to'g'ri bitta ekvivalent mavjud bo'lmasligi, biroq mazmunning turli funksional vositalar orqali yetkazilishi mumkinligini ko'rsatadi. O'zbek tilidagi "hashar" birligini ingliz tiliga tarjima qilishda ham bitta so'zdan ko'ra tavsifiy izoh va madaniy sharh mazmunni to'liqroq ochib berishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ikki tilli o'quv lug'atlarida muqobilsiz birliklarni berishning bosqichli modelini taklif etish mumkin. Birinchi bosqichda birlikning lemma shakli, talaffuzi va grammatik xususiyatlari ko'rsatiladi. Ikkinchi bosqichda qisqa semantik izoh yoki tavsifiy tarjima beriladi. Uchinchi bosqichda kontekstga mos funksional ekvivalent ko'rsatiladi. To'rtinchi bosqichda zarur hollarda milliy-madaniy sharh beriladi. Beshinchi bosqichda esa birlikning real nutqdagi qo'llanishini ko'rsatuvchi misol keltiriladi. Mazkur model o'quvchining birlikni

nafaqat yodlab olishi, balki uning mazmuni va qo‘llanish sharoitini tushunishiga yordam beradi.

Muqobilsiz leksikani tasniflashda ham bir nechta mezonlardan foydalanish mumkin. Mavzu sohasiga ko‘ra taom, kiyim-kechak, urf-odat, tarix, davlat boshqaruvi, san’at va boshqa sohalarga oid birliklarni ajratish mumkin. Ifoda shakliga ko‘ra yakka so‘zlar, so‘z birikmalari va frazeologik birliklar farqlanadi. Ekvivalentlik darajasiga ko‘ra esa mutlaq, nisbiy va qisman ekvivalentlik holatlarini hisobga olish mumkin. Madaniy yuklama jihatidan birliklar neytral, konnotativ yoki ramziy mazmunga ega bo‘lishi mumkin.

Muqobilsiz leksika statik hodisa emas. Tillararo aloqalarning kuchayishi, globallashuv va madaniyatlararo almashinuv natijasida ilgari muqobilsiz hisoblangan ayrim birliklar o‘zlashishi yoki nishon tilda muayyan muqobilga ega bo‘lishi mumkin. Aksincha, yangi ijtimoiy, texnologik va madaniy jarayonlar yangi birliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Demak, muqobilsizlikni sinxron holat bilan bir qatorda diaxronik jihatdan ham o‘rganish zarur.

Muqobilsiz leksikaning yana bir muhim jihati uning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rnidir. Chet tilini o‘rganayotgan shaxs bunday birlikni o‘zlashtirish jarayonida uning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda, mazkur birlik ortidagi madaniy kontekstni ham anglaydi. Shu jihatdan muqobilsiz birliklarni o‘quv lug‘atlarida to‘g‘ri va tizimli berish o‘quvchining lingvistik kompetensiyasi bilan bir qatorda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, rus va G‘arb ilmiy maktablari qarashlarini qiyoslash muqobilsiz leksikaning ikki asosiy jihatini — lingvomadaniy xususiyat va funksional-kommunikativ vazifani — birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur ikki yo‘nalishning uyg‘unligi ikki tilli pedagogik leksikografiya uchun yanada maqbul nazariy asos yaratadi.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy tahlil muqobilsiz leksika tushunchasining turli ilmiy maktablarda turlicha izohlanganini, biroq ularning umumiy mazmunida bir qator mushtarak belgilar mavjudligini ko‘rsatdi. Rus tarjimashunoslik an’anasida muqobilsiz birliklarning milliy-madaniy tabiati va tarjima jarayonidagi o‘rni ko‘proq ta’kidlangan bo‘lsa, G‘arb tarjimashunosligida funksional, kommunikativ va pragmatik jihatlar ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijasida muqobilsiz leksikani quyidagicha ta’riflash mumkin: muqobilsiz leksika — manba tilda mavjud bo‘lib, nishon tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri leksik ekvivalentga ega bo‘lmagan, milliy-madaniy, tarixiy yoki ijtimoiy mazmunni ifodalovchi hamda tavsifiy, izohli yoki funksional vositalar orqali nishon tilga yetkazilishi mumkin bo‘lgan leksik birliklar majmuidir.

Mazkur ta’rif muqobilsizlikni “tarjima qilib bo‘lmaslik” tushunchasi bilan tenglashtirmaslik imkonini beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentning mavjud emasligi birlik mazmunini boshqa tilda ifodalashning imkonsizligini anglatmaydi.

Aksincha, kontekst, tavsifiy tarjima, funksional muqobil, izoh va madaniy sharh yordamida uning asosiy mazmuni nishon til o‘quvchisiga yetkazilishi mumkin.

Ikki tilli o‘quv lug‘atlarini yaratishda muqobilsiz birliklarning semantik mazmuni bilan bir qatorda, milliy-madaniy xususiyatlari va kommunikativ vazifalarini ham hisobga olish lozim. Bunday yondashuv lug‘atning faqat tarjima vositasi sifatidagi vazifasini kengaytirib, uni o‘quvchining lingvistik va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantiruvchi pedagogik vositaga aylantiradi.

Shu sababli kelgusidagi tadqiqotlarda ingliz va o‘zbek tillaridagi muqobilsiz birliklarning korpusga asoslangan tipologiyasini ishlab chiqish, ularni mavzu va ekvivalentlik darajasiga ko‘ra tasniflash, ikki tilli o‘quv lug‘atlarida izohlashning optimal modelini aniqlash hamda mazkur modelni amaliy lug‘at materiallari asosida sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – Москва: Наука, 1981.
2. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – Москва: ЭТС, 2002.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общщей и частной теории перевода. – Москва: Международное отношения, 1975.
4. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: E.J. Brill, 1969. – 220 p.
5. Newmark P. Approaches to Translation. – Oxford: Pergamon Press, 1981. – 200 p.
6. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. – London: Oxford University Press, 1965. – 103 p.
7. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2011.
8. Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. – New York: Oxford University Press, 1992.
9. Zgusta L. Manual of Lexicography. – Prague: Academia, 1971.
10. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
11. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Akademnashr, 2008.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694